



## LESSINGNING HAYOTI VA IJODI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Mamatova Anorxon Iminovna<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Farg'ona davlat universiteti nemis tili o'qituvchisi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.5812711>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-Dekabr 2021  
Ma'qullandi: 15-Dekabr 2021  
Chop etildi: 20-Dekabr 2021

### KALIT SO'ZLAR

*Lessing, nemis adabiyoti, Donishmand Natan, adabiyot durdonalari*

### ANNOTATSIYA

*Maqolada Lessingning hayoti va ijodi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Lessingning asarlari va ularning ahamiyati ochib berilgan.*

### Kirish

XVIII asrning 60-yillarida nemis adabiyoti o'z rivojlanishining sifatli yangi davriga kirdi. Uning jamiyat, zamonaviylik bilan aloqasi kuchaydi, tanqidiy ko'lami kengaydi. Tanqid endilikda Gellert ijodida kuzatilganidek nafaqat oilaviy hayotning, balki davrning ijtimoiy munosabatlarini ham o'z ichiga qamrab olishni boshladi. Bunga knyazlikning zo'ravonligi sabab bo'ldi. Aynan shuni fosh qilish yangi xislatga ega bo'ldi – o'tkir ijtimoiylik, tarixiy aniqlik bo'ldi. Konkret hayotga yaqinlashib, badiiy ijod uni real tarzda, antagonistik, ijtimoiy-siyosiy kuchlarga to'qnashib tasvirlash imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu o'z o'rnida san'atni xalqning inqilobiy tarbiyasi, uning ijtimoiy ongi rivojlanishi vositasiga aylantirdi.

### Asosiy qism

Oldinga asosiy qadamni tanqid qo'ydi. Eng avvalo, Lessingning zo'r berishlari tufayli realizm nazariyasi ishlab chiqildi. Bu nazariya yozuvchilarni zamonaviy hayotning nafaqat go'zal, balki nojo'ya hodisalarini ham odilona tasvirlashga yo'naltirardi. Hal qiluvchi hukm ostiga davrning ijtimoiy qarama-qarshiliklaridan ideallashtirilgan antik davrga olib boruvchi, davr talabiga javob bermaydigan asarlar tushdi. Bundan tashqari, axloqiy byurgerlar ezgu hislatlari (hukumat oldidagi holatlar, his-tuyg'uga boylik va hokazolar kabi narsalar bilan kelishish) ni kuylovchi "meshchanlar dramasi" ham tanqid qilindi. O'rtahollar qiziqishlarining matonatli himoyachisi



bo'lgan fuqaro – insonning tarbiyasi masalasi olg'a surildi.

1760 yillarda yirik nazariy ishlar va badiiy asarlar dunyo yuzini ko'rdi. Nemis milliy realistik san'ati tarixidagi muhim bosqich sanalgan Lessingning mashhur traktati "Laokoon" va "Minna von Barnhelm" asarlari chop etildi. Mana shu o'n yillikning o'zidayoq Herdarning ilk tanqidiy maqolalari, poemalari va Vilandning "Agaton" romani yozildi. Nemis adabiyoti o'zining yetuklik bosqichiga kirdi.

60 yillar Germaniya adabiy hayotida muhim o'rinni Lessing egallaydi. Uning adabiy faoliyati serqirra va samarali edi. U qobiliyatli tanqidchi, san'at nazariyotchisi, yozuvchi. Lessing adabiyotni hayot bilan yaqinlashtirdi, unga ijtimoiy yo'nalish ato etdi, uni feodal – krepostnoy zulmdan xalqni ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy ozod qilish vositasiga aylantirdi. Chernishevskiy yozganidek: "Lessing tarixiy muhtojlik uning vatani gullab-yashnashi uchun chaqirgan arboblarning ilk avlodlarining eng asosiysi bo'lgan. U yangi nemis adabiyotining otasi edi. U nemis adabiyoti ustidan diktatorlik qudrati bilan hukmronlik qilgan. Undan keyingi barcha nemis adiblari, hatto Shiller, va hattoki Gyote ham o'z faoliyatlarining eng yaxshi davrlarida uning shogirdi bo'lganlar".

Lessing kurashchi, inqilobchi ma'rifatparvar bo'lgan. Aqliy jihatdan, nemis jamiyatining mazlum tabaqasi qiziqishlari nuqtai nazaridan u knyazlar istibdodidan, jur'atsiz, o'z kuchiga ishonmay qo'ygan nemis byurgerlarini tanqid qiladi, mamlakatning milliy birdamligi uchun jonbozlik ko'rsatadi, ozodlik g'oyalarining qurbon talab qiluvchi, qahramonona hizmat qilishga undovchi

insonparvarlik g'oyalarini targ'ib qiladi. Uning ijodi xalqchil, ruhiy jihatdan milliy. U nemis millati uchun hayotiy zarur bo'lgan muammolarni olg'a suradi.

Olmon ma'rifatparvar shoiri, dramaturgi va zabardast tanqidchisi Gotthold Efraim Lessing 1729 yilning 22 yanvarida Saksoniyaning Kaments shaharchasida ruhoniylar oilasida dunyoga keldi. Lessinga yashagan davrdagi maktablarning cheklanganligiga qaramasdan, o'zining tirishqoqligi va g'ayratliligi tufayli Layptsig universitetiga o'qishga kirdi, u yerda ikki yil sabot va matonat bilan o'zi qiziqqan ko'p fanlarni atroflicha o'rgandi. Layptsigda o'qib yurgan paytidayoq u teatrga qiziqadi, shu sohada o'z kuchini sinab ham ko'radi. Uning Molyer yo'sinida yozilgan "Yosh olim" nomli birinchi komediyasi katta muvaffaqiyat qozonadi.

1748 yilda G.E. Lessing Berlinga, keyinchalik esa Vittenburgga keladi. U bu yerda o'qishni rasmiy suratda tugallab, magistr (gumanitar fanlar muallimi) unvoniga ega bo'ladi.

Lessingning umri og'ir muhtojlikda o'tadi. U arziyas choychaqa uchun kunbay ishlovchi adabiy xodim bo'lib xizmat qiladi. Lekin shunday bo'lishiga qaramasdan, u har xil ilmlarni egalladi, o'z nomini abadiylashtiruvchi sermazmun asarlar yaratishga ham vaqt topa oldi.

1767-1769 yillarda Lessing Hamburgda yashaydi. U yerda teatrni tashkil etishda faol ishtirok etadi. Uning yozgan taqrizlari keyinchalik "Hamburg dramaturgiyasi" nomli kitobga asos bo'ladi. Bu kitob teatr san'atining emas, balki adabiyot nazariyasining ham oltin xazinasiga aylangan.



Doimo muhtojlikda hayot kechirgan va haddan tashqari ko'p mehnat qilgan Lessing 52 yoshida vafot etadi. "Germaniyada juda ko'plab genial kishilarning bevaqt o'lib ketishiga hayratlanishning hojati bo'lmasa kerak", - deb yozgan edi Lessingning o'zi erta o'lib ketgan do'sti Miliusning asarlarini nashr etayotgan paytda.

Lessing o'tkir zehni, o'qimishli va iste'dodli kishi edi. Yangi nazariya yaratish uchun shunday qobiliyat sohibi juda zarur edi. O'sha davrning mahdud nazariyachilarini ayovsiz tanqid ostiga olish uchun teran o'qimishlilikdan tashqari, mustahkam iroda va jasorat ham kerak edi. Lessing o'zining "Noyob maktublar"ida yozuvchilarni mustaqillikka da'vat etarkan, adabiyot saroy ahlining didiga xizmat qilmasdan, oddiy xalq orzu-havasini tarannum etishga xizmat qilmog'i kerak, deb yozgan edi.

U Germaniya ijtimoiy sistemasining va olmon istibdodining ashaddiy dushmani edi. Lessing kishilarning imtiyozli va imtiyozli bo'lmaganlarga bo'linishiga qarshi edi.

Lessing jamiyatni uyqudan uyg'otish uchun birdan-bir vosita adabiyot ekanligini chuqur tushunardi. U adabiyotni adolat uchun kurashishning keng maydoni deb bildirdi. Lessing kishilarni kurashga da'vat etarkan: "Safsata sotish uchun emas, balki kurashmoq uchun yashash kerak", - deb yozgan edi.

Lessing o'z dramalari "Miss Sara Sampson" (1755), "Minna von Barnhelm" (1763-1767), "Emiliya Galotti" (1757-1771) va "Donishmand Natan" (1779) da haqiqiy inson obrazini yaratadi.

Lessing o'zining o'lmas asarlari bilan ko'p shoir va yozuvchilarga ijod bobida buyuk namuna bo'ldi. Lessingning olijanob ishini Gyote va Shiller davom ettirdi.

Lessing buyuk yunon mutafakkiri Aristotel an'alarini davom ettirib, estetika nazariyasini yaratdi. Uning nazariy risolasi bo'lgan "Laokoon" (1766) hozirgacha san'at haqidagi fanda o'z ahamiyatini yo'qotmasdan kelmoqda.

Gotthold Efraim Lessing nemis ma'rifatparvarlarining yirik namoyondasidir. U haqda fikr yuritarkan N.G.Chernishevskiy "U yangi nemis adabiyotining otasi edi" degandi.

## **Fikr va mulohazalar**

Lessing ruhoniy oilasida tavallud topadi. Ma'lumotni Laypsig (1746-1748) va Vittenberg (1748) universitetlarida oladi. Shu davrning o'zidayoq universitet ta'limining quruq safsatabozligidan norozi bo'lgan Lessing badiiy asarlar ("Yosh olim", 1747-1748 komediyasi va boshqalar) yozishni boshlaydi. Keyin u 12 yil Berlinda yashaydi, u yerda u tasodifiy badiiy, jurnalistik maoshlar bilan kun kechiradi.

## **Xulosa**

Ma'rifatparvarlik g'oyalariga burkangan, ularni targ'ibot qilishning adabiy vositalarini qidirayotgan Lessing klassik masal janrini tanlaydi. Chunki bu oddiy avom xalq tushunadigan janr bo'lib, o'sha davrning asosiy muammolari haqida sodda hayotiy voqealar orqali tushuncha bera olgan hamda ahamiyatsiz yakka hokimiyatchilik va burjuaziya tor fikrliligini fosh qilish imkonini berardi. 1759 yilda u Ezopniki kabi nasriy yo'nalishda yozilgan o'z "Masallari" va



“Masal haqida o’ylar” traktatini nashr sifatida maydonga chiqdi.  
ettirib, bu janrning buyuk nazariyotchisi

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Nisbet H. B. Gotthold Ephraim Lessing: His Life, Works, and Thought. – OUP Oxford, 2013.
2. Lessing G. E. Dramaturgie de Hambourg par E.-G.[Gotthold Ephraim] Lessing. – Didier, 1869.
3. Lessing G. E. Lessing's theological writings: selections in translation. – Stanford University Press, 1957. – T. 51.